



## TYUBEGATAN KONINING SILVINITLARINI ERITISH JARAYONINI O'RGANISH

**Xaydarova M.D.**

*Termiz Muhandislik-texnologiya instituti assistenti*

**Eshqorayev S.S.**

*Termiz Muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

**Ro'zimurodov B.I.**

*Termiz Muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tyubegatan konining past navli silvinitlarini galurgiya usuli bilan qayta ishlashning maqbul shart-sharoitlarini aniqlash va ishlab chiqarishning texnologik sxemasini hamda silvinitlarning turli namunalarini eritish jarayoni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tyubegatan, silvinit, kon, flotatsiya, kaliyli o'g'it, fraksiya, ruda.

**Аннотация** В данной статье описаны процесс определения оптимальных условий переработки низкосортных сильвинитов Тюбегатанского месторождения галургическим способом и технологическая схема производства, а также процесс выплавки различных образцов сильвинитов.

**Ключевые слова:** тубегатан, сильвинит, добыча, флотация, калийное обогащение, фракция, руда.

Flotatsiya usuli past navli kaliy rudalaridan KCl miqdori 95-96% gacha bo'lgan yuqori sifatli konsentratni ololmaydi. Bundan tashqari, ingichka silvinit fraksiyalari samarali natija bermaydi.

Kaliyli o'g'itlar sifatini oshirishning eng samarali usuli - bu 0,2 mm sinfni flotatsion ozuqadan chiqarib tashlash va uni gallurgik qayta ishlashga yuborish. Galurgik usulda boyitish usulidan foydalanish ko'p hollarda past navli kaliy rudalarini qayta ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi .

Galurgik usuldan foydalanganda 99% yuqori konsentratsiyali kaliy xloridni olish mumkin va shu bilan birga, toza natriy xlorid hosil bo'ladi, u oziq-ovqat tuzi sifatida ishlatilishi yoki turli xil natriy tarkibidagi moddalarni olish uchun ishlatilishi mumkin.

1-jadvalda asl silvinitning kimyoviy tarkibi ko'rsatilgan. Kaliy xloridni rudadan ajratib olishda harorat, silvinitning o'lchamlari - rudalar sinfi, eritish vaqt, aylanma eritmaning ta'siri o'rnatildi. 1-jadvalda asl silvinitning kimyoviy tarkibi ko'rsatilgan

### 3.1.1-jadval

| Namuna         | Komponentlarning tarkibi, % |      |                    |         |
|----------------|-----------------------------|------|--------------------|---------|
|                | KCl                         | NaCl | Erimaydigan qoldiq | Eslatma |
| Qizil silvinit |                             |      |                    |         |
| 1              | 28,6                        | 50,8 | 2,8                | Qattiq  |
| Oq silvinit    |                             |      |                    |         |



|          |      |       |      |             |
|----------|------|-------|------|-------------|
| 2        | 24   | 72,15 | 3,85 | Yumshoq     |
| Angidrit |      |       |      |             |
| 3        | 20,8 | 33,9  | 6,8  | Juda qattiq |

Tadqiqotlar - 60, 80, 100 °S haroratda o'tkazildi; silvinitning o'lchamlari - ruda sinfi -2 + 1; -1 + 0,5; -0,5 + 0,2; eritish vaqt 10, 20, 30 minut.

Tyubegatan konidan turli xil silvinit namunalari: qizil silvinit, oq silvinit, angidrit bilan galurgiya bo'yicha laboratoriya tajribalari quyidagi tarzda amalga oshirildi.

1) ruda namunalari -2 + 1 sinfgacha ezilgan; -1 + 0,5; -0,5 + 0,2;

2) ruda namunalari suv bilan 60, 80, 100 °S haroratda va 10, 20, 30 minut vaqt davomida eritildi;

3) cho'kmani filtrlash orqali eritmada ajratilgan;

4) kalyxloridni kristallantirish uchun eritmani 25 °S gacha sovitildi.

5) kalyxlorid kristallari boshlang'ich suyuqligidan filtrlash yo'li bilan ajratilgan;

6) kalyxloridning olingan kristallari yuvilgan

7) kristallar quruq mahsulot, kalyxloridi olish uchun quritilgan

2-jadval. Texnologik parametrlarning qizil silvinit yordamida gallurgiya usuli bilan kalyxlorid olish jarayoniga ta'siri.

### 2-jadval


| №<br>tajriba | Erish harorati,<br>°S | Sinf, ruda<br>Mm | Erish vaqt, minut             |      |      |
|--------------|-----------------------|------------------|-------------------------------|------|------|
|              |                       |                  | 10                            | 20   | 30   |
|              |                       |                  | Kalyxloridni ajratib olish, % |      |      |
| 1            | 60                    | -2+1             | 5,3                           | 11,9 | 15,2 |
| 2            |                       | -1+0,5           | 6,6                           | 12,6 | 17,8 |
| 3            |                       | -0,5+0,2         | 8,05                          | 16,9 | 20,1 |
| 4            | 80                    | -2+1             | 12,2                          | 26,0 | 35,4 |
| 5            |                       | -1+0,5           | 14,1                          | 28,1 | 37,1 |
| 6            |                       | -0,5+0,2         | 16,4                          | 29,3 | 41,2 |
| 7            | 100                   | -2+1             | 21,5                          | 47,5 | 67,8 |
| 8            |                       | -1+0,5           | 23,6                          | 48,4 | 69,3 |
| 9            |                       | -0,5+0,2         | 25,2                          | 50,7 | 70,5 |

Tajribalar natijalaridan ko'rinish turibdiki, haroratning 100°C ga ko'tarilishi bilan, silvinit rudasi namunalarining erish vaqtining davomiyligi, kalyxloridni qayta tiklash foizini oshiradi.

Silvinitni 60°C haroratda eritganda, kalyxloridi ajratib olishning eng yuqori ko'rsatkichlari -0,5 + 0,2 sinfidagi silvinit rudalarining namunalarida kuzatiladi.

Va angidritda eng past ko'rsatkichlar - angidritni -2 + 1 rudasi bilan boyitganda, kalyxlorid ajratib olinishi ham kuzatilmaydi.

Harorat ko'tarilishi bilan -2 + 1 va -1 + 0,5 sinflaridagi silvinit rudalaridan kalyxloridning ekstraksiyasi kuchayadi.





Eritish haroratini taqqoslab, 100 °C da har xil sinfdagi rudalarga ega bo'lgan barcha namunalar kaliy xloridning nisbatan o'xshash ekstraksiyasiga ega degan xulosaga kelish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.** Titkov S.N., Mamedov A.I., Solovev Ye.I. Obogashchenie kaliyynykh rud. - M.: Nedra, 1982.-216 s.
- 2.** 18. Pozin M.Ye. Texnologiya mineralnykh udobreniy: Uchebnik dlya vo'zov. - L.: Ximiya, 1989.-S. 263-295
- 3.** 19. Kashkarov O.D., Sokolov I.D. Texnologiya kaliyynykh udobreniy. - L., Ximiya, 1978. -248 s.
- 4.** 20. Grabovenko V.A. Proizvodstvo besxlornnykh kaliyynykh udobreniy. - L.: Ximiya, 1980. -256 s.
- 5.** 21. Aleksandrovich X.M. Osnovy primeneniya reagentov pri flotatsii kaliyynykh rud. -Minsk: Nauka i texnika, 1973. - 296 s.

